



ILMIY AXBOROTNOMA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК

SCIENTIFIC REPORTS

2016-yil 6-son (100)

GUMANITAR FANLAR SERIYASI

**Tarix. Falsafa. Sotsiologiya. Filologiya. Pedagogika.
Psixologiya. Iqtisodiyot.**

Samarqand viloyat matbuot boshqarmasida ro'yxatdan o'tish tartibi 09-25.

Jurnal 1999-yildan chop qilina boshlagan va OAK ro'yxatiga kiritilgan. Tarix, falsafa, sotsiologiya, filologiya, pedagogika va psixologiya yo'nalishlarida chop qilingan maqolalar doktorlik dissertatsiyalari himoyasida hisobga olinadi.

BOSH MUHARRIR

R.I. XALMURADOV, t.f.d., professor

BOSH MUHARRIR

A.J. XOLIQOV, k.f.d., dotsent

O'RINBOSARLARI:

A.M. NASIMOV, t.f.d., professor

TAHRIRIYAT KENGASHI:

- | | |
|------------------------|----------------------------------|
| M. X. ASHUROV | - O'zFA akademigi |
| M. M. KAMILOV | - O'zFA akademigi |
| B. J. AXMEDOV | - f.-m. f. d., professor |
| A. S. BEGMATOV | - fals.f. d., professor |
| T. M. MO'MINOV | - O'zFA akademigi |
| X. T. MAMATOV | - yu.f.d., professor |
| U.S. SALIXBAYEV | - f.-m.f.d., professor |
| E. G'. G'OZIYEV | - psixol.f.d., professor |
| B. O. TO'RAYEV | - fals.f.d., professor |
| F.I. TOSHEV | - «Zarafshon» gazetasi muharriri |
| T. SH. SHIRINOV | - tar.f.d., professor |
| M. Q. QURONOV | - ped.f.d. professor |

GUMANITAR FANLAR SERIYASI

TAHRIRIYAT HAY'ATI:

- | | |
|---------------------------|--------------------------|
| M.D.DJURAKULOV | - tar.f.d., professor |
| I. M. SAIDOV | - tar.f.d., professor |
| O. M. G'AYBULLAYEV | - fals.f.d., dotsent |
| N. Sh. SHODIYEV | - ped.f.d., professor |
| M. Q. MUHIDDINOV | - fil.f.d., professor |
| H. I. UMIROV | - fil.f.d., professor |
| D. I. SALOHIY | - fil.f.d., professor |
| S. A. KARIMOV | - fil.f.d., professor |
| M. Q. PARDAYEV | - i.f.d., professor |
| M. M. MUXAMMEDOV | - i.f.d., professor |
| B. X. TO'RAYEV | - i.f.d., professor |
| Sh. R. BARATOV | - psixol.f.d., professor |
| B. Q. QODIROV | - psixol.f.d., professor |
| Z. Yu. MUQIMOV | - yu.f.d., professor |
| J. Ya. YAXSHILIKOV | - fals.f.d., professor |

Koordinator

A. Sh. YARMUXAMEDOV – f. - m.f.n.

Muharrirlar:

- | | |
|------------------------|----------------------|
| B. S. G'OYIBOV | - t.f.n., dotsent |
| R. TOSHQUVATOVA | - fals.f.n., dotsent |
| N. U. ARABOV | - i.f.n., dotsent |

MUNDARIJA/CONTENTS/СОДЕРЖАНИЕ

| TARIX/HISTORY | | |
|---|--|-----|
| Irisqulov O.J. | Mustamlaka davrida Samarqand viloyati ma'muriy boshqaruvining xususiyatlari | 4 |
| Муллаев А.Ш. | Роль «Великого Шелкового Пути» в международных связях государств Центральной Азии | 7 |
| Sidikova M.X. | Istiqlol yillarida Samarcand shaharsozligi xususida | 11 |
| Аметов Т. А. | Развитие Каракалпакстана за годы независимости и суверенитета | 16 |
| Nazirov M. | “Siyosiy jarayon” kategoriyasiga oid konseptual qarashlar va talqinlar | 21 |
| Рашидова Ф.Ш. | Узбекистан-Южная Корея: перспективы развития двусторонних отношений в историческом контексте | 24 |
| Махмудова Н.Б. | Социально-экономическая картина Царского Туркестана в начале XX в. (по материалам ревизии сенатора К.К.Палена) | 27 |
| Умаров А.А. | Интересы Саудовской Аравии, Катара и Объединенных Арабских Эмиратов в Афганистане после 2001 года | 31 |
| Сайфуллаев Д.Б. | Геополитическое положение Центральной Азии и превентивная дипломатия Узбекистана | 39 |
| FALSAFA/PHILOSOPHY | | |
| Normamatova M.N. | Virtuallikni yangicha tushunish: falsafiy asos | 44 |
| Tursunqulova Sh. | Badiiy-estetik ijodda o'z-o'zini tashkillashtiruvchi omillar xususida | 49 |
| Quldoshev A.T. | Xalqaro ekologik siyosat va unda O'zbekistonning tutgan o'rni | 52 |
| Bo'ronov M.M. | Milliy mafkura ozod va obod vatan, erkin va farovon hayotning mayog'idi | 57 |
| Yuldashev R.D. | Globallashuv sharoitida oliv ta'limning rivojlanish tendensiyalari | 61 |
| Axmedov X.A. | Taraqqiyotning “O'zbek modeli”, ma'naviyat va sinergetika | 65 |
| Shermanov I.Ch. | Global axborotlashgan makonda moddiy va ma'naviy ishlab chiqarishni uyg'unlashtirish - taraqqiyot garovi | 68 |
| SOTSILOGIYA/SOCIOLOGY | | |
| Ганиева М.Х. Латипова Н.М. | Модель социальной адаптации воспитанников интернатных учреждений к новым условиям жизнедеятельности | 73 |
| FILOLOGIYA/PHILOLOGY | | |
| Малиновский Е.А., Нормухамедова М. | Из истории изучения взаимодействия русского и тюркских языков | 79 |
| Бабаходжаев А.Б. Тилляева М.Ю. | Специфика и национальные особенности перевода эквивалентных фразеологизмов в русском и узбекском языках | 82 |
| Ким С.Ф. | О дифференции дополнения и несогласованного определения | 85 |
| Сидикова И.И. Абдуллаева А.С. | Роман Ф.М.Достоевского «Игрок» в контексте пушкинской традиции | 89 |
| Sulaymonov I.I. | “Boburnoma”da Shayboniyxonning g'olibligi va ma'naviy tanazzuli tasviri | 93 |
| Alimov F.Sh. | Nofilologik fakultet talabalarining yozma nutq kompetensiyasini shakllantirish | 98 |
| Boltakulova G.F. | Ingliz va o'zbek tillarida temporal posterior sintaksemalarning xususiyatlari | 102 |
| Sulaymanova N. J. | Ingliz va o'zbek tillarida lokativ adessiv semaning variantlari | 105 |
| Салиева З.И. | Особенности критерия оценивания навыку говорения на английском языке | 109 |
| Normominov Sh.T. | Til tizimi va so'z turkumlari paradigmasida yadro-periferiya munosabatlari haqida | 112 |
| Эгамова М.Х. | Особенности нарративной структуры рассказа М.Доста «Цена одного жеребенка» | 116 |

| | | |
|---|--|-----|
| Акбаров А. | Анализ взаимосвязи когнитивного процесса и логики с языком | 120 |
| Raximova G.A. | Ertaklar tarjimasida milliylik va milliy kolorit muammosi | 126 |
| Shirinova R.X. | Kognitiv dissonans fenomeni va uning tarjimada tutgan o'rni | 131 |
| PEDAGOGIKA/PEDAGOGICS | | |
| Yoziyeva U.L. | Axborot tahdидини бартароф этиш тамоилиари ва дараҷалари | 135 |
| Xalmatova N. B. | Ayol va o'smir qizlar sport mashg'ulotini tashkil etish uslubiyati | 137 |
| Toshpulatova M.I. | Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining matematik-metodik tayyorlarligini takomillashtirish | 141 |
| Mamatqulov X.A. | Pedagoglar amaliyotida chet tilini bilish uning kasbiy kompetentligini oshirish nuqtayi nazari | 145 |
| Axmedov F.Sh. | Yosh dzyudochilar musobaqaoldi tayyorlarligida mashg'ulot mikrosikllari | 148 |
| Murtazayev E.M. | Kasb-hunar kollejlarida maxsus fanlarni o'qitish mohiyati va xususiyatlari | 151 |
| Azizova G. | Oliy ta'lim o'qituvchilarining innovatsion pedagogik faoliyatini ingliz tili o'qituvchilari misolida tashkil qilishning mazmuni va mohiyati | 156 |
| Narziyeva N.N. | O'quvchilarda tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish masalalari | 160 |
| Boltayev Z.B. | BO'SM faoliyati sifatini oshirishda yosh sportchilarning motivlarini shakllantirishga yo'naltirilgan o'quv-mashg'ulot ishlarning ahamiyati | 164 |
| Yunusov M. | Axborot globallashuvi davrida yosh avlod media ta'limi muammolari | 167 |
| Jiyanqulova R.X. | Kasb-hunar kolejlarida pedagog mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning psixologik jihatlari | 169 |
| Хашимов А.А. Хаджаев А.А. | Некоторые аспекты проектирования учебного процесса в информационно-образовательной среде в системе непрерывного повышения квалификации педагогов | 174 |
| PSIXOLOGIYA/PSYCHOLOGY | | |
| Samarov R.S. | Inson kamolotini ta'minlashda madaniy omil: strukturaviy-funksional jihat | 179 |
| IQTISODIYOT/ECONOMICS | | |
| Tashnazarov S.N. | Daromadlar va harajatlarga doir hisobotlarni xalqaro standartlarga muvofiq takomillashtirish | 184 |
| Ro'zibayev O. | Alisher Navoiyning iqtisodiy-ijtimoiy faoliyati | 188 |
| HUQUQSHUNOSLIK/LAW | | |
| Kuvandikov Z.O. | O'zbekiston Respublikasining saylov tizimi: milliy va xalqaro tajriba | 190 |
| O'QITISH METODIKASI/TEACHING METHODOLOGY | | |
| Omonova F. | Akademik litseyning 3-kursida Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" asarini o'rghanish | 193 |
| UNIVERSITET HAYOTIDAN/UNIVERSITY LIFE | | |
| MUALLIFLARGA/FOR AUTHORS | | |
| | | 199 |

UDK:1.101.8**BADIY-ESTETIK IJODDA O‘Z-O‘ZINI TASHKILLASHTIRUVCHI OMILLAR XUSUSIDA****Sh.Tursunqulova***Samarqand davlat universiteti, o‘qituvchi*

Ushbu maqolada san’atning ma’naviy ahamiyati va badiiy-estetik ijod o‘z-o‘zini tashkillashtiruvchi tizim sifatida falsafiy nuqtayi nazaridan tahlil etiladi. Shuningdek, ijodning falsafiy bilimlar tizimidagi konsepsiyalari va badiiy estetik ijodda tasavvur va fantazianing nochiziqli jarayon ekanligi tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: san’at, ijod, badiiy-estetik ijod, tasavvur va fantaziya, nochiziqlilik.

О факторах самоорганизации в художественно-эстетическом творчестве

В статье анализируется с точки зрения философии значение сущности искусства и художественно-эстетического творчества как самоорганизующей системы, а также исследуются концепции относительно системы философских знаний, нелинейности представлений и фантазий в художественно-эстетическом творчестве.

Ключевые слова: искусство, творчество, искусство, представление, фантазия, нелинейность.

About factors of self-organization in the artistic and aesthetic creativity

The article analyzes the essence of art and artificial in the aspect of philosophy. Additionally there are mentioned the conceptions of creative works in the systems of philosophical knowledge and the work of art which are the pattern of literary and aesthetic creative work.

Keywords: art, creative activity, artistic aesthetic creative activity, self-organisation, presentation, fantasy.

Hozirgi kunda jamiyatimiz ma’naviyatini yuksaltiruvchi omillardan biri san’at hisoblanadi. San’at ham boshqa sohalar kabi o‘zida milliylik va umuminsoniylikni saqlagan holda, yurtimizda yangi hayot, yangi jamiyatning ma’naviy asoslarini mustahkamlash, komil insonni tarbiyalash yo‘lida murakkab vazifalarni bajarib kelmoqda.

Mamlakatimizda bugungi kunda san’at va badiiy-ijod bilan shug‘ullanish uchun iste’dod va qobiliyat egaligiga erkin ijod uchun, milliy qadriyatlarmiz va boy ma’naviyatimizni, xalqimiz tarixini, uning bugungi sermazmun hayotini to‘laqonli va haqqoniy aks ettirish uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan. San’at turidan qat’iy nazar ijodkorlarning faoliyatida Vatan va xalq manfaati, ezbilik va insoniylik tamoyillari asosiy omil hisoblanadi. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta’kidlaganlaridek, “Agarki, har qaysi ijodkor o‘z asarlarida ana shu o‘lmas g‘oyalarni bosh maqsad qilib qo‘ysa, ularni badiiy mahorat bilan ifoda eta olsa, hech shubhasiz, adabiyot ham madaniyat va san’at ham tom ma’noda ma’naviy yuksalishga xizmat qilib, o‘zining ijtimoiy vazifasini to‘liq ado etishga erishgan bo‘ladi.[1.159]

San’atning ijtimoiy vazifasini to‘liq amalga oshishi uchun u erkin ijodiyot qonuniyatlariga asoslanishi lozim. San’at ahli oldida millat va mamlakat taqdirini hal qiluvchi, yangi zamon tarixini yaratuvchi xalq badiiy-estetik tafakkurini shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi badiiy ijodiyot namunalarini yaratish zaruriyati turibdi. Ma’lumki, san’at inson ongi va tafakkuriga ta’sir o‘tkazib, badiiy-estetik oziq beradigan tarbiya vositalaridan biri sifatida insonni barkamollikka, bunyodkorlikka, ijodkorlikka da’vat etadi. Inson qalbida ezbilik, go‘zallikka intilish g‘oyalarni shakllantirishdek ahamiyatga molik xususiyatining mavjudligi bilan ajralib turadi. Shuning uchun san’atni yuzaga keltiradigan inson va uning ongi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan omillarni o‘z-o‘zini tashkillashtiruvchi tamoyillar nuqtayi nazaridan tahlil etish san’at va badiiy-estetik ijodga doir yangi g‘oya va falsafiy tushunchalarni beradi.

Bugungi kunda murakkab o‘z-o‘zini tashkillashtirish “uchinch ming yillik fani” [2.249] sifatida qaralayotgan sinergetika nuqtayi nazaridan o‘rganilmoqda. San’atga sinergetik yondashuv uning murakkab o‘z-o‘zini tashkillashtiruvchi tizim ekanligini, bu tizimda badiiy-estetik ijod alohida o‘rin egallashini ta`kidlash mumkin, chunki san’at asarlarining mazmun-mohiyatini badiiylik va go‘zallik ifoda etadi.

Badiiy-estetik ijodning sinergetik xususiyatlarini tushunish uchun dastlab ijodning falsafiy bilimlar negizida paydo bo‘lgan konsepsiyalarini ko‘rsatib o‘tish muhimdir. Bular qo‘yidagilardan iborat:

- gnoseologik konsepsiya, unga ko‘ra, ijod ongning funksiyasidir, chunki, ijod subyektning faoliyatni bo‘lib, uning ob’yektga, uni o‘zlashtirishga bo‘lgan faol munosabati bilan belgilanadi.

- ontologik konsepsiysi ya’ni ijodning muhim xususiyati – bu yangilik, yangi narsaning yaratilishidirki, bu muayyan tizimning o‘zida yangi holat, element yoki tuzulishini paydo qilishlikda namoyon bo‘ladi. Ya’ni ijod – bu yaratuvchanlik qobiliyati bor sistemalarining universal xossasidir [3.43]

- aksiologik konsepsiaga ko‘ra, ijodning tom ma’nodagi mohiyati, ijod subyektining ochiq tizim tarzidagi xususiyati – obyektga his-tuyg‘u va mushohada-shuuriylik birligi bilan shartlangan qadriyatlichkeit munosabatida bo‘ladigan faoliyatdir. [4.9] Unga ko‘ra, badiiy tafakkur konkret shaxs borlig‘i, mohiyatining muhim atributi sifatida emas, balki, asosan sof gnoseologik fenomen, ya’ni bilish jarayonining yakuniy bosqichi tarzida olib qaraladi va bunda his-tuyg‘u uning uchun yo‘ldosh jihat deb hisoblanadi. Shu asosda fan, falsafada “aql”, “fikr”, “mushohada”, “shuur” kabi his-tuyg‘uga muqobil tushunchalar shakllanadi.

Falsafiy lug‘atda ijod jarayoni kashfiyotchilik va ixtirochilikdir deb tushuntiriladi, ya’ni kashf etish jarayoni fanga no‘malum bo‘lgan obyektiv hodisalarni, xususiyatlarni, qonuniyatlarini ochib, bilimlar tizimiga tub o‘zgarishlar kiritadi - [5.147] deya, umumiylar ta’rif berilgan.

Hozirgi kunda ijodning sinergetik konsepsiyalari ham talqin etilmoqda, xususan, professor Sh.Qo‘sboqov “ijodni o‘z-o‘zini tashkillashtiruvchi tizimlarda yangi, takomillashgan, harakat va tartibotni vujudga kelishidan iborat tuzulma” [6.80] deya ta’kidlaydi. Unga ko‘ra, muhit bilan modda, energiya va struktura almashinuvini amalga oshirayotgan tizimlarda ijodkor attraktorlar va fraktallar paydo bo‘ladiki, ularning yo‘naltirilgan va tartiblashtirilgan ta’sirlari natijasida yangi holat, tuzilma va tartibotlar yuzaga kelishi jarayoni sodir bo‘ladi.

Yuqorida fikrlardan kelib chiqib shuni ta’kidlash mumkinki, ijod falsafiy bilimlarda alohida o‘rganilayotgan sohalardan sanaladi, shu bois ijodga berilayotgan ta’riflar bu bilan chegaralanmaydi. Biz quyida ijod turlaridan biri badiiy-estetik ijod va uning murakkab o‘z-o‘zini tashkillashtiruvchi omillari to‘g‘risida fikr yuritamiz.

Badiiy-estetik ijodda subyektning obyektga bo‘lgan munosabati spontan, fluktuasion, nochiziqli bo‘lishi o‘z-o‘zidan sinergetik nuqtayi nazarni keltirib chiqaradi. Ijodiyot turidan qat’iy nazar faraz, gipoteza va albatta, fantaziya bilan bog‘lanadi. Aynan shu holatlar nochiziqli dunyoqarashni yuzaga keltiradi. Nochiziqlilik dinamik xususiyat bo‘lib, tizimning turli-tumanligini belgilaydi. Nochiziqlilikning muhim xususiyatini “kichik narsaning o‘sishi” prinsipi (fluktuasiya kuchayishi), tizim evolyutsiyasi yo‘llarining ma`lum spektri mavjudligi bilan ham izohlanadi.

San’atda badiiylik, estetik qiymat va go‘zallik bir-biri bilan o‘zaro aloqadorlikda, ajralmas jihatlarni tashkil etib, badiiy asarni san’at darajasiga ko‘taradigan asosiy omillar sanaladi. San’atda badiiylikning go‘zallik va estetik uyg‘unlik bilan qorishib ketishini ko‘ramiz. Badiiy-estetik ijod natijasida san’at asarlari vujudga keladi, ya’ni kreativlik yuzaga keladi, ushbu jarayon ham sinergetik qonuniyatlarga amal qiladi. Inson san’at asarlarini yaratishda o‘z qobiliyatidan kelib chiqib, badiiy-estetik ijodga to‘la bo‘ysunadi, ammo har qanday yaratilgan badiiy-ijod namunasi ham san’at asari darajasiga ko‘tarilmaydi. Shuningdek insonlarning ham hammasi san’at, badiiy-estetik ijod bilan shug‘ullanish qobiliyatiga ega emas.

Demak, badiiy-estetik ijod san’atni vujudga keltiruvchi jarayon sifatida subyektning ijtimoiy voqelikka yoki tabiatga nisbatan badiiy-estetik munosabatini yoritib beradigan murakkab, inson ongi, tafakkuri bilan bog‘liq bo‘lgan, bevosita subyektga xos ijodiy ichki kechinma, fantaziya va taassurotlarni turli vositalar orqali shakllantiradigan kreativlik xususiyatiga ega bo‘lgan jarayondir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni ta’kidlash mumkinki, san’atda ijod va badiiy-estetik ijod bir-biri bilan uzviy aloqadorlikda bo‘ladi, chunki san’at asarlarida badiiylik mavjud bo‘lmasa yoki badiiy asar estetik jihatdan go‘zallikka yo‘naltirilmagan bo‘lsa, unday badiiy asarlar san’at darajasiga ko‘tarilmaydi.

Badiiy-estetik ijodda tasavvur asosiy o‘rinda turadi. Badiiy tasavvur ijodkorning faoliyatida qanday murakkab vazifani bajaradi, masalan rassom badiiy yoki boshqa turdagidan adabiyotlar bilan tanishib, rasmlardan ko‘rib ham qiyofalarni, manzarani, tabiatni chizishi mumkin. Bu ijodiy jarayonda

insonning olamni anglashdagi badiiy tasavvuri asosiy vazifani bajaradi. Tasavvurlarda jonli mushohada bilan birga mavhum, mantiqiy tafakkur ham chirmashib ketadi. Tasavvurlar jonli mushohada tarzida narsalar va hodisalar aksi, mavhum tafakkur tarzida esa umumlashtirish usuli orqali namoyon bo‘ladi. Tasavvurlar hissiyotli va mavhum hodisalar oralig‘idan o‘rin oladi, ularda nafaqat voqelik, balki unga bo‘lgan munosabat ham aks etadi. Inson nimani tanlaydi, nimani ilgari suradi - bularning barchasi tasavvurlarda namoyon bo‘ladi. Shunday qilib, badiiy tasavvur san‘at asarlarida badiiy qiyofa yaratishga yordam beradi. Shuni aytish joizki, ijodkorning badiiy qiyofalar yaratish qobiliyati uning tasavvurlar hosil qilish qobiliyatidan kelib chiqadi.

Badiiy tasavvurda rejalgangan qiyofalar ijodkorning estetik orzusiga, uning go‘zallik va mukammallik haqidagi o‘y-fikrlariga mutanosib bo‘ladi. Badiiy ijod jarayonida tasavvur kelajakni orzu-umidlar orqali oldindan ko‘rishi kuzatiladi. Badiiy tasavvur tarkibida insonning orzu-umidlari, intilishlari va ehtiyojlari mayjud bo‘ladi. Shu bois tasavvur ijod uchun rag‘batlantiruvchi, birlashtiruvchi, tashkillashtiruvchi omil sifatida xizmat qiladi.

San‘atda voqelik badiiy to‘qimasiz, to‘qima esa voqeiy hodisalarsiz aks etmaydi. Voqelik xayol-tasavvur hosil qilib, bu xayol - tasavvurlarga hayotiylik baxsh etadi. Puxta o‘ylangan, oylab, yillab ongda shakllangan tasavvurlar mahsulining mazmundorligini kuchaytiradi. Badiiy ijodkor tasavvur yordamida ongidagi hayot tafsilotlarini, qahramon xulq-atvorini, uning tashqi ko‘rinishini va boshqa xususiyatlarni qayta tiklab olishi mumkin.

Ijodkor obraz hayoti bilan bog‘liq muhim bir jihatni qayta yaratish uchun ham hayotining barcha tafsilotlarini to‘la tasavvur qilishi darkor. Masalan, yozuvchi o‘z qahramonini mehnat jarayonida ifodalash uchun uning kundalik turmushdagi, oilaviy va shaxsiy hayotdagi xulq-atvorini tasavvur qila olishi yoki aksincha, qahramonning shaxsiy hayotini ishonarli tasvirlash uchun ijodkor uning mehnat jarayonidagi xulq-atvorini to‘la tasavvur etishi lozim bo‘ladi.

Fantaziya va tasavvurning o‘ziga xos xususiyatlari shundaki, birinchidan, tasavvur bor narsani, bor bo‘lishi mumkin bo‘lgan narsani, bilgan ma’lumotlarimizni yaratadi, ikkinchidan, fantaziya yo‘q narsani, voqelikda uchramaydigan narsalarni, hech qachon bo‘lmagan va bo‘lmaydigan narsalarni yaratadi. Ammo, shunday fantaziyalar ham mayjudki, ular real voqelikka aylangan. Masalan, xalq fantaziyalardan biri uchar gilamlarning yaratilganligi, odamlar keyingi davrlarda uchish moslamalarida ko‘kka parvoz qilish, fazoga ko‘tarilish mumkinligini bilishmagan.

Tasavvur va fantaziya badiiy-estetik ijodning samaradorligini oshiruvchi murakkab o‘z-o‘zini tashkillashtiruvchi sinergetik omillar sifatida nochiziqlilikni yuzaga keltiradi. Tasavvurda yaratmoqchi bo‘layotgan manzara yoki obraz to‘g‘risida axborotni yig‘ish, mohiyatini anglash dastlabki holatda kuchli tartibsizliklarga uchraydi. I.Prigojin fikriga ko‘ra, tartibsizlik va xoasdalan o‘z-o‘zini tashkil etish jarayoni natijasida spontan ko‘rinishdagi birlashmalar hosil bo‘ladi [7.432]. Inson ongida sodir bo‘ladigan nochiziqli, fluktuatsion, tasodifiy bu jarayonlar nafaqat destruktiv, balki konspektiv, yaratuvchi vazifasini ham bajarishi mumkin. Bu jarayonda insonning hayotiy tajribasi, dunyoqarashi, ijtimoiy muhit, ijodiy erkinligi eng muhim rolni o‘ynaydi. Tabiat va jamiyatda ma’lum bo‘lgan, ijodkor uni ko‘rib, anglash va reja orqali yaratayotgan badiiy asarning yaratilishi tartibli holatda bo‘ladi. No‘malum voqelik, ko‘rmagan, avval anglanmagan, his etmagan obraz yoki manzarani yaratilishi to‘satdan, kutilmagan tarzda paydo bo‘lishi tartibsizlik holatini keltirib chiqaradi.

Badiiy-estetik ijodda bunday nochiziqli holatlarning mayjudligi badiiy asarlarning turli tumanligi, takrorlanmasligini namoyon etadi. Shaxs badiiy-estetik ijodi turli omillar ya’ni inson ongi, tafakkuri va tashqi muhit ta’siri ostida shakllanib, unda tasavvur, fantaziya, his-tuyg`u kabi inson ongi bilan bog‘liq boshqa xususiyatlarning o‘rni kattadir. Ijod, badiiy ijod, badiiy-estetik ijod o‘z navbatida san‘atning murakkab o‘z-o‘zini tashkillashtiruvchi omillaridan hisoblanadi.

Yuqorida fikrlardan kelib chiqib shuni ta’kidlash mumkinki, bugungi kunda san‘at insonni insoniylashtiruvchi, har bir odamning o‘z iste’dod va salohiyatlarini ro‘yobga chiqarish va ularda tashabbuskorlik, g‘ayrat, ijodkorlik tuyg‘ularini zavqiy haqiqat bilan bog‘lashda bemisl tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, ma’naviyatni buzadigan, inson ongida buzg‘unchilik, jaholat va axloqsizlik tushunchalarini shakllantiradigan san‘at asarlari ham mayjudki, ularga qarama-qarshi turadigan sog‘lom va go‘zallik qonuniyatlariga asoslanadigan estetik immunitetni shakllantirish zarur. Bu jihat alohida o‘rganilishi lozim bo‘lgan o‘z-o‘zini tashkillashtirish jarayonidir.

Xulosa qilib aytganda, **birinchidan**, san‘at inson qalbini davolovchi, uning axloqiy qiyofasini shakllantiruvchi, ma’naviy jihatdan komil inson bo‘lib voyaga yetishida asosiy omillardan biri sifatida

xizmat qiladi. Shuning uchun san'at, ijod bilan shug'ullanish uchun mamlakatimizda keng imkoniyatlar yaratilgan, **ikkinchidan**, san'atning asosiy mazmunini badiiy-estetik ijod belgilaydi. San'at asarlari o'zida badiiylik, go'zallik, estetik tarbiyaviylik ma'nolarini mujassam etishi lozim, **uchinchidan**, falsafiy bilimlar negizida ijod jarayonining gnoseologik, ontologik, aksiologik va sinergetik ta'riflari bilan tanishish orqali ijodning ko'pqirrali jarayon ekanligini ko'rishimiz mumkin, **to'rtinchidan**, badiiy-estetik ijod o'z-o'zini tashkillashtiruvchilik xossalariiga ega bo'lib, o'zida sinergetik jahhalarni namoyon qiladi. Badiiy-estetik ijoddha nochiziqlilik, хаос va tartibli holatlar ajralmas, bir-birini taqozo etadi, **beshinchidan**, badiiy-estetik ijod bevosita inson ongi bilan bog'liq bo'lgan jarayon sifatida unda tasavvur va fantaziya nochiziqlilikni keltirib chiqaradi.

Adabiyotlar

1. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. –Т.: Маънавият, 2008. – 159-бет.
2. Хакен Г. Информация и самоорганизация: микроскопический подход к сложным системам. - М: Ком Книга, 2005. –С.249.
3. Кўшоқов Ш.С. Ижод муаммоси: тавсифлар, назарий, ғоялар ва универсал тасаввурлар. Ижодиёт ва инсон омили. –Самарқанд, 1994. 43-бет.
4. Оллоёров М. Оллоёрова М. Санъат маънавиятнинг таркибий қисми. Рисола.-Самарқанд, 2000. 9-бет.
5. Фалсафа қисқача изоҳли луғат. -Т.:”Шарқ” НМАК, 2004. 284-бет.
6. Кўшоқов Ш.С. Синергетика, виртуаллик ва ижод. Синергетика: ривожланиши ва истиқболлари. Республика илмий анжуман материаллари. Наманган, 2010. – 80-бет.
7. Пригожин И., Стенгерс И. Порядок из хаоса. –М.: Прогресс, 1986. – С.432.

UDK: 327.39:323 (579.1)

XALQARO EKOLOGIK SIYOSAT VA UNDA O'ZBEKISTONNING TUTGAN O'RNI

A.T.Quldoshev

Samarqand davlat universiteti, mustaqil izlanuvchi

E-mail: asli-0708@mail.ru

Mazkur maqolada globalashuv sharoitida O'zbekiston davlat ekologik siyosatining asosiy jihatlari va tushunchalari, shuningdek, mustahkam rivojlanish yagona siyosatining o'zgarish tendensiyasi hamda tartibga solishning chora-tadbirlari tahlil qilingan.

Tayanch so'zlar: atrof muhitni muhofazalash, davlatning ekologik siyosati, jamiyat, ekologik konunchilik, davlatning ekologik chora-tadbirlari.

Международная экологическая политика и роль Узбекистана

В статье анализируются особенности формирования государственной экологической политики Узбекистана в условиях глобализации, а также стратегия регулирования и тенденции изменения единой политики устойчивого развития, подходы к ее пониманию.

Ключевые слова: охрана окружающей среды, государственная экологическая политика, общество, экологическое законодательство, экологическая стратегия государства.

The international environmental policy and the role of Uzbekistan

The article analyzes the peculiarities of formation of state ecological policy of Uzbekistan in the context of globalization, as well as the strategy of management and trends in unified policies for sustainable development, approaches to its understanding.

Keywords: environmental protection, state environmental politics, society, environmental legislation, environmental strategy of the state.

Hozirgi davrda dunyo miqyosida globallashuv jarayoni tez sur'atlar bilan jadallahib borayotgan sharoitda insoniyat uchun ekologik xavfsiz makonda yashash masalasi tobora dolzarb muammoga aylanmoqda. Ona sayyora muhitini keskinlashtirayotgan ekologik xavf, hatto yadro talafotidan ham dahshatliroq tarzda namoyon bo'lib bormoqda va yer yuzidagi barcha xalqlarni bu haqda chuqurroq o'yashgaga majbur etmoqda. Shunday ekan, xalqaro ekologik siyosat nuqtayi

MUALLIFLAR DIQQATIGA!

Hurmatli mualliflar, maqola muallif tomonidan qog'ozda chop etilgan va elektron shaklida taqdim qilinishi shart. **Maqolada quyidagi bandlar:** UDK, ishning nomi (o'zbek, rus va ingliz tillarida), maqola hammualliflarining ro'yxati (to'liq familiya, ismi, otasining ismi – o'zbek, rus va ingliz tillarida), muallif haqida ma'lumotlar: ish joyi, lavozimi, pochta va elektron pochta manzili; maqola annotatsiyasi (300 belgigacha, o'zbek, rus va ingliz tillarida), kalit so'zlar (5-7, o'zbek, rus va ingliz tillarida) bo'lishi lozim.

MAQOLALARGA QO'YILADIGAN TALABLAR!

Maqolalarning nashr etilishi uchun shartlar nashr etilishi mo'ljallangan maqolalar dolzarb mavzuga bag'ishlangan, ilmiy yangilikka ega, muammoning qo'yilishi, muallif tomonidan olingen asosiy ilmiy natijalar, xulosalar kabi bandlardan iborat bo'lishi lozim; ilmiy maqolaning mavzusi informativ bo'lib, mumkin qadar qisqa so'zlar bilan ifodalangan bo'lishi kerak va unda umumiyl qabul qilingan qisqartirishlardan foydalanish mumkin; "Ilmiy axborotnoma" jurnali mustaqil (ichki) taqrizlashni amalga oshiradi.

MAQOLALARNI YOZISH VA RASMIYLASHTIRISHDA QUYIDAGI QOIDALARGA RIOYA QILISH LOZIM:

Maqolalarning tarkibiy qismlariga: kirish (qisqacha), tadqiqot maqsadi, tadqiqotning usuli va obyekti, tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi, xulosalar yoki xotima, bibliografik ro'yxat. Maqola kompyuterda Microsoft Office Word dasturida yagona fayl ko'rinishida terilgan bo'lishi zarur. Maqolaning hajmi jadvallar, sxemalar, rasmlar va adabiyotlar ro'yxati bilan birgalikda doktorantlar uchun 0,25 b.t. dan kam bo'limasligi kerak. Sahifaning yuqori va pastki tomonidan, chap va o'ng tomonlaridan - 2,5 sm; oriyentatsiyasi - kitob shaklida. Shrift - Times New Roman, o'chhami - 12 kegl, qatorlar orasi intervali - 1,0; bo'g'in ko'chirish - avtomatik. Grafiklar va diagrammalar qurishda Microsoft Office Excel dasturidan foydalanish lozim. Matndagi bibliografik havolalar (ssilka) kvadrat qavsda ro'yxatda keltirilgan tartibda qayd qilish lozim. Maqolada foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati keltirilishi lozim. Bibliografik ro'yxat alfavit tartibida - GOST R 7.0.5 2008 talablariga mos tuziladi.

- Ikki oyda bir marta chiqadi.
- "Samarqand davlat universiteti ilmiy axborotnomasi"dan ko'chirib bosish faqat tahririyatning yozma roziligi bilan amalga oshiriladi.
- Mualliflar maqolalardagi fakt va raqamlarning haqqoniyligiga shaxsan mas'ul.

MAQOLAGA QUYIDAGILAR ILOVA QILINADI:

- Yo'llanma xati;
- Ekspert xulosasi.

E-mail: axborotnoma@samdu.uz

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTNOMASI

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК

SCIENTIFIC REPORTS

Mas’ul kotib
Musahhih
Texnik muharrir
Dizayner sahifalovchilar:

R. Sh.Toshquvatova, fols.f.n., dotsent
M.M. Ro‘ziboyev
S. D. Aronbayev
X. Sh. Tashpulatov
A. I. Inatov

Muassis: Samarqand davlat universiteti
Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15.
Telefon: (0 366) 239-14-07, Faks: (0 366) 239-13-87
e-mail: axborotnoma@samdu.uz

SamDU «Ilmiy axborotnoma» jurnali tahririyati kompyuterida terildi.
Bosishga **30.12.2016**-yilda ruxsat etildi. Qog‘oz o‘lchami A-4. Nashriyot hisob tabog‘i 10,00.
Buyurtma raqami **77**. Adadi 500 nusxa.

Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15.
SamDU bosmaxonasida chop etildi.